



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

2026  
1-сон



# SERVIS

ILMIY-AMALIY JURNAL 2026 yil, 1-soni

Muassis: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 2008 yil 31 dekabrda  
0561-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

O‘zR OAK Riyosatining 19.03.2017 y., 239/5-sonli qarori bilan e‘tirof etilgan

**Tahririyat a‘zolari:**

**Mas‘ul kotib:**

i.f.d., prof. M.Q.Pardaev

**Muharrirlar:**

i.f.d., dotsent F.A.Safarov  
PhD, dotsent I.M.Pardaeva  
PhD, I.Sh.Ernazarova

**Texnik muharrir:**

katta o‘qituvchi F.O.O‘roqov

**Korrektor:**

PhD, dotsent v.b.  
T.I.Yahyoyev

**Sahifalovchi:**

PhD, dotsent v.b.  
H.N.Ochilova

1 yilda 4 marotaba  
chop etiladi.

**O‘zbekiston hududida  
tarqatiladi.**

**Tahririyat manzili:**

140100, Samarqand shahar,  
Amir Temur ko‘chasi, 9-uy,

tel.: +998(66)233-28-38,  
+998(97)913-74-40

faks: +998(366)231-12-53  
el.pochta:

samisiservis@mail.ru

**Tahrir hay‘ati raisi:**

**M.E.Po‘latov** – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori,  
i.f.d., professor

**Tahrir hay‘ati raisi o‘rinbosari:**

**M.Q.Pardayev** – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

**Tahrir hay‘ati a‘zolari:**

**M.M.Muxammedov** – SamISI professori, iqtisod fanlari  
doktori

**D.R.Zaynalov** – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

**O.M.Murtazayev** – TDIUSF direktori, iqtisod fanlari doktori,  
professor

**M.R.Boltabayev** – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

**R.X.Ergashev** – QarMII professori, iqtisod fanlari doktori

**B.K.G‘oibnazarov** – iqtisod fanlari doktori, professor

**I.S.To‘xliyev** – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

**K.B.Urazov** – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

**Q.J.Mirzayev** – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

**B.I.Isroilov** – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

**G.M.Shodiyeva** – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

**S.N.Toshnazarov** – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

**R.N.Normaxmatov** – SamISI professori, texnika fanlari doktori

**A.Bektemirov** – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

**O.M.Pardayev** – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

**M.T.Alimova** – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

**Z.Dj.Adilova** – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

**Sh.O.Quvondiqov** – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

**L.N.Xalikova** – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

**F.A.Safarov** – SamISI dotsenti, iqtisod fanlari doktori

**A.M.Karimova** – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

**I.B.Mattiyev** – SamISI professori, pedagogika fanlari doktori

**B.F.Boronov** – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

**A.N.Xoliqulov** – SamISI professori, iqtisod fanlari nomzodi

**X.A.Raximov** – SamISI dotsenti, PhD

**S.A.Babanazarova** – SamISI dotsenti, PhD

**H.N.Ochilova** – SamISI dotsenti v.b., PhD

**I.R.Berdikulova** – SamISI dotsenti v.b., PhD

**A.Q.G‘apparov** – SamISI dotsenti v.b., PhD

<b>Xurshid Azamatovich Yunusov</b> Tadbir va ko‘ngilochar xizmatlarni rivojlantirishda marketing strategiyalaridan foydalanish	154
<b>Hamdam Iris o‘g‘li Allayorov</b> Logistika axborot oqimlarini sun‘iy intellekt asosida optimallashtirish	159
<b>Nodirjon Fayzullayevich Bekbutayev</b> Monopoliyaga qarshi siyosatni amalga oshirishda davlat organi va hududiy boshqarmalar faoliyatining samaradorligi	163
<b>Bekzodjon Sheraliyevich Oblakulov</b> Improving private education customer loyalty and brand trust through the implementation of digital marketing strategies	167
<b>Sadulla Shodiyevich Urazov, Laylo Obidjon qizi Abduraxmanova</b> Ta‘lim muassasalarida tashkiy tuzilmaning boshqaruv samaradorligiga ta‘siri	170
<b>MOLIYA, PUL MUOMALASI VA KREDIT</b>	
<b>Nuriddin Elamonovich Ernazarov</b> Aksiz solig‘ining byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi muammolar	174
<b>Шавкат Собирович Олтаев</b> Рақамли иқтисодиёт шароитида суверен фондларни самарали бошқариш масалалари	177
<b>Madina Sanjar qizi Khotamkulova</b> Corporate efficiency as a financial market participant	181
<b>BUXGALTERIYA HISOBI, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT</b>	
<b>Komil Vaxromovich Urazov, Qahramon Hamidovich Vaxobov</b> Pochta xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar xarajatlari hisobining o‘ziga xos xususiyatlari	186
<b>Ortiq Eshnazarovich Ernazarov</b> Xizmatlar sohasini chiziqli ekonometrik modellashtirish asosida tahlil qilish va prognozlashtirish	191
<b>Тўлқин Исматулла ўғли Яхёев</b> Қурилиш хизматлари кўрсатувчи корхоналарда 15 сон МХХС асосида даромадларни тан олиш	198
<b>Jamshidbek Axmad ug‘li Abdurasulov</b> Korxonalarni qayta tashkil etishning o‘zgartirish shaklida buxgalteriya hisobi va hisobotini MHXS asosida takomillashtirish	202
<b>TA‘LIM, KADRLAR TAYYORLASH VA PEDAGOGIKA</b>	
<b>Умар Худайбердиев</b> Мактабгача ва мактаб таълими - илм ва муваффақият калитидир	209
<b>Bexzod Nematillayevich Gapparov</b> OTM kichik guruhlarda temperamentga yo‘naltirilgan pedagogik model	212
<b>Iltom Begmatdulobovich Mattiyev</b> Chet tillarni o‘rganishda pedagogik texnologiyalarning o‘rni	216
<b>Anvar Maxkamovich Soatov</b> Talabalar temperamentiga mos akademik yuklama taqsimotining samaradorligi	221
<b>E‘TIBORGA MOLIK MASALALAR</b>	
<b>Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев</b> Рамазон луғати Бахт нима?	225

-Фанлар бўйича олимпиада ғолиблигига эришган, кейинчалик меҳнат фаолиятида ҳам муваффақиятга эришган ёшлар бўйича, уларнинг хаёт йўлларини, ғолиблик ва муваффақиятлар қандай эришганлигини ифодаловчи очерклар ёзиб, уларни кўп нусхада чоп эттириб, мактаб кутубхоналарига тарқатиш лозим. Уларни ўқиганлар илм муваффақиёт калити эканлигини англаши керак.

Ёшларни илмга, билимга, маърифатли, маънавиятли бўлишга, баркамолликка тарғибот қилиш ҳозирги замоннинг долзарб вазифасидир.

Илм-фаннинг ривожланиши иқтисодиётнинг барқарор ўсишига аҳоли фаровонлигининг юксалишига замин яратади.

**Фойдаланилган адабиётлар руйхати**

1. Ўзбекистон Республикаси қонуни: “Таълим тўғрисида”, 2020 йил 23 сентябрда қабул қилинган.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси” тўғрисидаги Фармони

3. Худайбердиев Умар. Мактабгача таълим-таълим ва тарбиянинг асосидир. “Сервис” илмий-амалий журнали, №1 сон, 2023 йил Самарканд

4. “Газета уз” 2025 йил 15 декабр

5. www.stat.uz

<p><b>У.Худойбердиев</b></p> <p><b>Дошкольное и школьное образование — ключ к знаниям и успеху</b></p> <p><b>Аннотация.</b> В статье описывается сущность и значение дошкольного и общеобразовательного среднего образования в качественном воспитании молодежи. На примерах доказывается, что дошкольное и школьное образование является важной частью образования и воспитания молодежи, ключом к будущему успеху.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> молодежь, воспитание, образование, дошкольное образование, общеобразовательные средние школы, научные олимпиады, победители олимпиад, награды, продвижение, пропаганда, ключ к успеху.</p>	<p><b>U.Khudoyberdiev</b></p> <p><b>Preschool and school education is the key to knowledge and success</b></p> <p><b>Abstract.</b> This article describes the essence and importance of preschool and general secondary education in the quality development of youth. Examples demonstrate that preschool and school education are an important part of the education and upbringing of youth, and the key to future success.</p> <p><b>Keywords:</b> youth, upbringing, education, preschool education, comprehensive secondary schools, science olympiads, olympiad winners, awards, promotion, propaganda, key to success.</p>
---	--

**Bexzod Nematillayevich Gapparov** – Jizzax Politexnika Instituti “Arxitekturaviy loyihalash” kafedrasida dotsent vazifasini bajaruvchi

**OTM KICHIK GURUHLARDA TEMPERAMENTGA YO‘NALTIRILGAN PEDAGOGIK MODEL**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida kichik guruhlar bilan ishlash jarayonida temperamentga asoslangan pedagogik boshqaruv modelining samaradorligi yoritilgan. Sinov-tajriba xolerik, sangvinik va flegmatik temperamentli talabalar misolida olib borilib, ularning faolligi, motivatsiyasi va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarida ijobiy o‘shish qayd etilgan.

**Kalit so‘zlar:** temperament, pedagogik boshqaruv, kichik guruh, sinov-tajriba, o‘quv motivatsiyasi, oliy ta’lim.

**Kirish.** Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, talabalarining intellektual salohiyatini oshirish hamda ta’lim jarayonini samarali boshqarish masalalari davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. So‘nggi yillarda oliy ta’lim muassasalarida

talabaga yo‘naltirilgan ta‘lim, kompetensiyaviy yondashuv, alohida tartibda olib boriladigan ta‘lim trayektoriyalarini shakllantirish, shuningdek, psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ta‘lim jarayonida talabalarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, ularning qiziqishlari va imkoniyatlariga mos boshqaruv mexanizmlarini joriy etish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda<sup>1</sup>. Bu borada pedagoglar va ta‘lim tyutorlari tomonidan turli uslubiy tavsiyalar, treninglar hamda diagnostik yondashuvlar ishlab chiqilmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Temperament muammosi qadimdan olimlar e‘tiborida bo‘lib kelgan. Qadimgi yunon tabibi Gippokrat inson xulq-atvoridagi individual farqlarni tana suyuqliklari muvozanati bilan izohlab, temperamentning dastlabki tasnifini bergan. Keyinchalik Ibn Sino o‘zining Al-Qonun fi‘t-tibb asarida mizoj (temperament) nazariyasini rivojlantirib, insonning ruhiy va jismoniy xususiyatlari o‘zaro bog‘liqligini ta‘kidlagan. Ushbu qarashlar temperamentning biologik va psixologik asoslarini anglashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

XIX-XX asrlarda temperament masalasi ilmiy-eksperimental asosda o‘rganila boshlandi. Rus fiziologi Ivan Pavlov oliy nerv faoliyati tiplari haqidagi ta‘limotida temperamentni nerv tizimi kuchi, muvozanati va harakatchanligi bilan bog‘ladi. Uning ishlari pedagogik jarayonda individual yondashuvning fiziologik asoslarini tushuntirishga xizmat qiladi. Shuningdek, Boris Teplov va Vladimir Nebylitsyn tadqiqotlarida individual-psixologik farqlar va qobiliyatlarning nerv-fiziologik mexanizmlari chuqur tahlil qilingan.

Shaxs psixologiyasi doirasida Hans Eysenck temperamentni ekstraversiya–introversiya va neyrotizm o‘lchamlari orqali izohlab, uning diagnostik modelini ishlab chiqqan. Mazkur yondashuv ta‘lim jarayonida talabalarni psixologik jihatdan differensial baholash imkonini beradi.

Pedagogik boshqaruv va individual yondashuv masalalari bo‘yicha Vasiliy Sukhomlinskiy hamda Konstantin Ushinskiy asarlarida o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta‘lim g‘oyasi ilgari surilgan. Ular ta‘lim samaradorligi bevosita shaxsiy xususiyatlarni hisobga olish bilan bog‘liqligini asoslab berganlar. Zamonaviy pedagogika va psixologiya adabiyotlarida ham talabalarning individual xususiyatlariga tayangan boshqaruv yondashuvlari muhim omil sifatida qayd etiladi.

Shu bilan birga, tahlil qilingan adabiyotlarda temperament nazariyasi yetarlicha yoritilgan bo‘lsa-da, uni oliy ta‘lim muassasalarida kichik guruhlar faoliyatini boshqarish modeli bilan tizimli bog‘lash masalasi to‘liq ishlab chiqilmagan. Aksariyat tadqiqotlarda temperament diagnostikasi va umumiy pedagogik tavsiyalar keltirilgan, ammo amaliyotga yo‘naltirilgan, sinov-tajriba asosida tekshirilgan boshqaruv modeli yetarli darajada asoslanmagan.

Shu nuqtai nazardan, temperamentga asoslangan pedagogik boshqaruv modelini ishlab chiqish va uni OTMlarda kichik guruhlar misolida sinovdan o‘tkazish mavjud ilmiy qarashlarni rivojlantiruvchi va amaliyotga tatbiq etuvchi dolzarb yo‘nalish sifatida namoyon bo‘ladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda temperamentga asoslangan pedagogik boshqaruv modelining samaradorligini aniqlash maqsadida bir qator nazariy va empirik tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Avvalo, nazariy tahlil usuli asosida pedagogika va psixologiyaga oid ilmiy adabiyotlar o‘rganildi, temperament nazariyalari hamda individual yondashuvga doir ilmiy qarashlar tizimlashtirildi va umumlashtirildi.

Empirik bosqichda quyidagi usullar qo‘llanildi:

- Kuzatish usuli – talabalar faoliyati, dars jarayonidagi ishtiroki, muloqot darajasi va topshiriqlarni bajarish faolligi muntazam kuzatildi.
- Psixologik diagnostika usuli – talabalar temperament turi (xolerik, sangvinik, flegmatik) aniqlanib, shunga mos pedagogik yondashuv belgilandi.
- Pedagogik tajriba (sinov-tajriba) usuli – kichik guruh sharoitida har bir talaba bilan temperamentiga mos alohidalashtirilgan boshqaruv usullari qo‘llanildi.
- Suhbat va savolnoma usuli – talabalar motivatsiyasi, o‘zini baholashi va o‘quv jarayoniga

<sup>1</sup> Aynaqulov M.A. Xudayberdiyev B.B. Motivatsiya samaradorlik garovi sifatida // Ilmiy axborotnoma jurnali. Samarqand Davlat Universiteti. – 2020. – №. 2 (120). – C. 91.

munosabati o‘rganildi.

- Taqqoslash va tahlil usuli – tajriba boshidagi va yakunidagi ko‘rsatkichlar (o‘quv faolligi, motivatsiya, o‘zlashtirish darajasi) qiyosiy tahlil qilindi.
- Statistik qayta ishlash usuli – olingan natijalar miqdoriy va foiz ko‘rsatkichlari asosida umumlashtirildi.

Tadqiqot davomida kichik guruh tarkibidagi 3 nafar talaba (xolerik, sangvinik va flegmatik tip vakillari) tajriba obyektlari sifatida ishtirok etdi. Har bir talabaning individual-psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda pedagogik boshqaruv strategiyasi ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etildi.

Mazkur metodologik yondashuv temperamentga mos pedagogik boshqaruv modelining ta’lim samaradorligiga ta’sirini aniqlash hamda ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkonini berdi.

**Tahlil va natijalar.** Sinov-tajriba jarayonida xolerik temperamentli talabaga faol rahbarlik, tezkor aloqa va qisqa muddatli vazifalar berildi. Natijada ushbu talabada darsdagi ishtirok faolligi va topshiriqlarni bajarish tezligi sezilarli darajada oshdi.

Sangvinik temperamentli talaba bilan esa ijtimoiy faollikni qo‘llab-quvvatlovchi, guruhli ishlarga asoslangan boshqaruv usullari qo‘llanildi. Bu yondashuv talabaning o‘quv motivatsiyasi va bilimlarni o‘zlashtirish darajasini barqaror oshirishga xizmat qildi.

Flegmatik temperamentli talaba uchun esa sokin, rejalashtirilgan va bosqichma-bosqich nazoratga asoslangan pedagogik boshqaruv usullari tanlandi. Natijada talabaning darsga nisbatan mas’uliyati va mustaqil ishlash ko‘rsatkichlarida ijobiy o‘shish kuzatildi (1-jadval).

**1-jadval**

**Temperamentga asoslangan pedagogik boshqaruv modelining samaradorlik ko‘rsatkichlari**

№	Talaba temperament turi	Dars faolligi (ball)	Motivatsiya darajasi (ball)	O‘zlashtirish darajasi (%)
1	Xolerik	58 → 82	60 → 85	62 → 88
2	Sangvinik	65 → 87	68 → 90	70 → 92
3	Flegmatik	52 → 74	55 → 78	58 → 80

**Manba: Jadvalda ko‘rsatkichlar tajriba oldi va tajriba yakunidagi natijalar asosida berilgan.**

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, temperamentga asoslangan pedagogik boshqaruv modeli barcha uch temperament turida ham ijobiy natijalar bergan. Xususan, xolerik temperamentli talabaning dars faolligi 24 ballga, motivatsiyasi 25 ballga, o‘zlashtirish darajasi esa 26 foizga oshgan. Bu holat tezkor va faol boshqaruv usullarining xolerik talabalar uchun samarali ekanligini ko‘rsatadi.

Sangvinik temperamentli talaba ko‘rsatkichlari barcha mezonlar bo‘yicha eng yuqori o‘shishga ega bo‘lib, bu uning ijtimoiy faollikka yo‘naltirilgan boshqaruv usullariga tez moslashishini tasdiqlaydi. Flegmatik temperamentli talabada esa o‘shish sur’ati nisbatan sekin bo‘lsada, barqaror va ijobiy natijalar qayd etilgan. Bu esa flegmatik talabalar bilan ishlashda uzoq muddatli va tizimli boshqaruv zarurligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, tajriba natijalari temperamentga mos pedagogik boshqaruv modeli talabalar faolligi, motivatsiyasi va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini oshirishda samarali ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Olib borilgan sinov-tajriba ishlari temperamentga asoslangan pedagogik boshqaruv modelining oliy ta’lim muassasalarida kichik guruhlar bilan ishlash jarayonida yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Turli temperament tiplari bilan tavsiflangan talabalar misolida o‘tkazilgan tajriba natijalari talabalarining o‘quv faolligi, motivatsiyasi va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarida sezilarli ijobiy o‘shish mavjudligini tasdiqladi. Bu esa ta’lim jarayonida yagona va standart boshqaruv yondashuvlaridan voz kechib, talabalar shaxsiy psixologik xususiyatlariga mos pedagogik boshqaruv mexanizmlarini joriy etish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, xolerik temperamentli talabalar uchun tezkor va

faol rahbarlik, sangvinik temperamentli talabalar uchun ijtimoiy faollikka yo‘naltirilgan boshqaruv, flegmatik temperamentli talabalar uchun esa rejalashtirilgan va bosqichma-bosqich nazoratga asoslangan yondashuvlar ta‘lim samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, temperamentga mos boshqaruv talabalarining o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon etishiga, ta‘lim jarayonida psixologik qulay muhit shakllanishiga zamin yaratadi<sup>1</sup>.

**Xulosa va takliflar.** Olib borilgan tadqiqot natijalariga tayangan holda shuni ta‘kidlash mumkinki, temperamentga asoslangan pedagogik boshqaruv modeli oliy ta‘lim muassasalarida kichik guruhlar bilan ishlash samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Tajriba jarayonida talabalarining individual-psixologik xususiyatlarini inobatga olish ularning o‘quv faolligi, motivatsiyasi hamda o‘zlashtirish ko‘rsatkichlariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi aniqlandi.

Muallif fikricha, mazkur ilmiy yo‘nalishni yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

1. Oliy ta‘lim muassasalarida talabalar temperamentini aniqlashga qaratilgan diagnostik vositalarni o‘quv jarayoniga tizimli ravishda joriy etish.

2. Pedagoglar va ta‘lim tyutorlari uchun temperamentga asoslangan boshqaruv bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

3. Kichik guruhlar bilan ishlashda alohidalashtirilgan pedagogik boshqaruv modellarini keng qo‘llash va ularni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish.

4. Mazkur yo‘nalish bo‘yicha tadqiqotlarni kengroq talaba auditoriyasida davom ettirish hamda bevosita kuzatish, sinov-tajriba, o‘lchash va empirik ma‘lumotlarga tayangan holda ilmiy bazani boyitish.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, temperamentga asoslangan pedagogik boshqaruv modeli oliy ta‘lim tizimida ta‘lim sifatini oshirish, talabalar salohiyatini ro‘yobga chiqarish va ta‘lim jarayonini samarali tashkil etishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu yondashuvni amaliyotga joriy etish innovatsion pedagogik boshqaruv tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Aynakulov M.A. Xudayberdiyev B.B. Motivatsiya samaradorlik garovi sifatida // Ilmiy axborotnoma jurnali. Samarqand Davlat Universiteti. – 2020. – №. 2 (120). – С. 91.

2. Aynakulov M.A. “Iqtisodiy tahlil va audit” fanini o‘qitishda G. Monj usulining tadbiqu // Biologiyaning zamonaviy tendensiyalari: muammolar va yechimlar. – 2023. – T. 1. – №. 5. – С. 902-905.

3. Айнакулов М.А. Менеjмент qarorlarining boshqaruv asosi sifatida shakllanishining tavsiyaviy bosqichlari // Results of National Scientific Research International Journal. – 2024. – T. 3. – №. 1. – С. 255-264.

<p style="text-align: center;"><b>Б.Гаппаров</b> <b>Педагогическая модель, ориентированная на темперамент, для работы в малых группах в университете</b></p>	<p style="text-align: center;"><b>B.Gapparov</b> <b>Temperament-oriented pedagogical model in small groups at the university</b></p>
<p><b>Аннотация.</b> В статье рассматривается эффективность педагогической модели управления, основанной на типах темперамента студентов в условиях малых групп высших учебных заведений. Эксперимент проведён с участием студентов с холерическим, сангвиническим и флегматическим темпераментом. Результаты показали рост учебной активности, мотивации и уровня усвоения знаний.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> темперамент, педагогическое управление, малая группа, эксперимент, учебная мотивация, высшее образование.</p>	<p><b>Abstract.</b> This article examines the effectiveness of a temperament-based pedagogical management model in higher education small groups. An experimental study involving choleric, sanguine, and phlegmatic students demonstrated positive improvements in learning activity, motivation, and academic performance. The findings confirm the importance of individualized management approaches in the educational process.</p> <p><b>Keywords:</b> temperament, pedagogical management, small group, experiment, learning motivation, higher education.</p>

<sup>1</sup> Aynakulov M.A. “Iqtisodiy tahlil va audit” fanini o‘qitishda G. Monj usulining tadbiqu // Biologiyaning zamonaviy tendensiyalari: muammolar va yechimlar. – 2023. – T. 1. – №. 5. – С. 902-905.

ISSN 2091-5187

☞ “SERVIS” ☞

Jurnal Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tahririyat  
bo‘limida nashrga tayyorlandi.

06.03.2026 yilda terishga berildi. 19.03.2026 yilda bosishga ruxsat etildi. Ofset  
bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84<sub>1/8</sub>. “Times” garniturasini. Ofset bosma usuli.  
Shartli bosma tabog‘i 15,4. Hisob-nashriyot  
tabog‘i 14,37. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 0031A/26

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining  
matbaa bo‘limida chop etildi.  
Litsenziya № 025316.  
Reestr № X-119112.

Manzil: Samarqand shahri, Shoxruh ko‘chasi, 60-uy.

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026.